

MAKTABDA ONA TILI DARSLARINI TASHKIL QILISHDA INTERFAOL METODLARNING O‘RNI

Xayrullayeva Muxlisa Uktam qizi

TOSHD O‘TAU 4-kurs talabasi

muxlisaxayrullayeva@gmail.com

[Tel: +998957954373](tel:+998957954373)

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabda ona tili darslarini interfaol usullarda tashkil etish, interfaol metodlarning turlari, ularning ta’lim samaradorligiga ta’siri, dars jarayonida ulardan foydalanish, zamonaviy ta’limda ulardan foydalanishning ahamiyati, interfaol metodlarni o‘quvchilarning yoshi va aqliy salohiyatidan kelib chiqqan holda tanlash kabi mavzularda so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: interfaol metodlar, zamonaviy pedagogik texnologiya, ona tili darslari, o‘quv jarayoni, ta’lim samaradorligi, didaktik o‘yinlar.

Abstract: This article discusses topics such as organizing native language lessons at school using interactive methods, types of interactive methods, their impact on educational effectiveness, their use in the lesson process, the importance of their use in modern education, and the selection of interactive methods based on the age and mental capacity of students.

Keywords: interactive methods, modern pedagogical technology, native language lessons, educational process, educational effectiveness, didactic games.

Kirish. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev shunday deydi: “O‘qituvchilarning eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iborat. Zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakkam ma’rifat va yuksak madniyat egasi bo‘lish-- uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Shunday ekan bolalarimiz kitob o‘qishi kerak. Kitob o‘qigan odamdan hech qachon yomonlik chiqmaydi. Kitobsiz kelajak yo‘q”¹¹⁵.

Shunday shiddat bilan rivojlanayotgan zamon bilan hamnafas o‘qituvchi o‘z fanini, albatta, yangi metodlar, usullar va texnologiyalarsiz tasavvur eta olamaydi. Hozirgi kunda barcha ta’lim muassasalarida o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanishga erishilmoqda. Bu esa interfaol ta’lim asosida tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning

¹¹⁵ «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». – T.: «O‘zbekiston», 1997.

mazmun-mohiyatini to‘liq tushunib yetishga va ularni samarali, qiziqarli, sifatli bo‘lishini ta’minlashga ko‘maklashadi. Interfaol metodlar asosidagi darslar o‘quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi.

Zamonaviy tilda metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi esa butun jarayon davomida faol ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi .

Ona tilimizning o‘ziga xos nafosatini o‘quvchilarga yetkazish, his qildirish, va undan oqilona foydalanishga o‘rgatish maqsadida hozirda ona tili ta’limida an’anaviy usullardan tashqari zamonaviy axborotlar, pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan unumli foydalanilmoqda. Venn diagrammasi”,

“Klaster”, “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Blits-so‘rov, , Keys-stadi”, “T” chizma, “Baliq skeleti”, “Muammoli vaziyat”, “Blits-so‘rov” kabi metodlarni bunga misol sifatida keltirishimiz mumkin. Jumladan “Paronimlar” mavzusidan so‘ng o‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi “so‘z sandig‘i” metodidan foydalansak bo‘ladi.

Xato yozilgan paronim so‘zlarni toping va sandiqchaga soling.



- ❖ Birovga choq qazisang, o‘zing tushasan.
- ❖ Mart bir o‘ladi, nomart – ming.
- ❖ Qarz ikki qo‘ldan chiqadi.
- ❖ Onangni kiftingda ko‘tarsang, singlingni kaftingda ko‘tar.
- ❖ Dunyoga boq, qaddi sendek kim bor yana,
Dovrug‘i ham dardi sendek kim bor yana,
Xalq bo‘lishga haddi sendek kim bor yana,

❖ Moziyni yot etay desang – xalq bo‘l, elim!

Gaplardagi choh, mard, nomard, qars, kaft, kift, yod so‘zlari noto‘g‘ri yozilgan. Buni faqat o‘ylash, fikrlash, leksikologiya bo‘yicha o‘tilganlarni eslash, xotirlash va zaruriy xulosalar chiqarish orqaligina topish mumkin. Bu esa o‘quvchilarning xotirasini mustahkamlashga yordam beradi, ulardagi mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchining faolligi alohida ahamiyat kasb etadi. L.S. Vygotskiyning ta‘kidlashicha, “ta‘lim jarayonida o‘quvchining faolligi bilimning mustahkam va ongli o‘zlashtirilishining asosiy shartidir”¹¹⁶. Ushbu fikr interfaol metodlarning ona tili darslarida qo‘llanishi ilmiy jihatdan asosli ekanini ko‘rsatadi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda interfaol metodlarning ahamiyati keng yoritilgan. Jumladan, tadqiqotchilar fikricha, “interfaol metodlar o‘quvchini ta‘lim jarayonining markaziga olib chiqadi va uni faol subyektga aylantiradi”¹¹⁷. Bu esa ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy va fikrlash faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Yuqoridagi nazariy qarashlar shuni ko‘rsatadiki, ta‘lim jarayonida o‘quvchi faolligini ta‘minlash muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. L.S. Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar asosida aytish mumkinki, bilimning ongli va mustahkam o‘zlashtirilishi bevosita o‘quvchining dars jarayonidagi ishtiroki bilan bog‘liq. Shu jihatdan qaraganda, ona tili darslarini tashkil etishda an‘anaviy, biryoqlama tushuntirishga asoslangan usullar o‘quvchi faolligini yetarli darajada ta‘minlab bera olmaydi. Muallifning fikricha, interfaol metodlar aynan mana shu muammoni hal etishga xizmat qiladi. Chunki bunday metodlar o‘quvchini bilimni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki uni izlovchi, tahlil qiluvchi va amaliy faoliyat jarayonida o‘zlashtiruvchi subyekt sifatida shakllantiradi. Interfaol yondashuv asosida tashkil etilgan ona tili darslarida o‘quvchilar til birliklaridan faol foydalanadi, o‘z fikrini erkin ifodalaydi va muloqot jarayonida nutqiy kompetensiyasini rivojlantiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, maktabda ona tili darslarini tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanish ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday metodlar o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini ta‘minlab, ularni mustaqil fikrlashga, o‘z nuqtayi nazarini asoslab ifodalashga va muloqot jarayonida til birliklaridan ongli foydalanishga yo‘naltiradi.

Tadqiqot natijalari va pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, interfaol yondashuv asosida tashkil etilgan ona tili darslari o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasi, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari hamda ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, guruhli ishlar, munozara, muammoli savollar va hamkorlikka asoslangan topshiriqlar orqali

¹¹⁶ Vygotskiy L.S. **Tafakkur va nutq.** – Moskva: Pedagogika, 1982

¹¹⁷ Klarin M.V. **Interfaol ta‘lim metodlari.** – Moskva: Znanie, 2000.

o'quvchilarning bilimlarni amaliy qo'llash imkoniyatlari kengayadi. Shuningdek, interfaol metodlar o'qituvchining darsdagi rolini qayta belgilab, uni bilim beruvchi emas, balki ta'lim jarayonini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi shaxs sifatida namoyon etadi. Bu esa o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy ta'lim talablariga to'liq mos keladi. Demak, ona tili darslarida interfaol metodlarni tizimli va maqsadli qo'llash o'quvchilarning bilim saviyasini oshirish, darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish hamda ta'lim sifatini yuksaltirishning muhim pedagogik omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». – T.: «O'zbekiston», 1997.
2. Vygotskiy L.S. **Tafakkur va nutq**. – Moskva: Pedagogika, 1982
3. Klarin M.V. **Interfaol ta'lim metodlari**. – Moskva: Znanie, 2000
4. Qosimova K. “Ona tili o'qitish metodikasi” –T.: «Nosir», 2009.
5. G'ulomov A. “Ona tili o'qitish printsiplari va metodlari” – T.: «O'qituvchi», 1992 - y.
6. G'ulomova M.X., Sobirova N.K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta'lim samaradorligini oshirish usullari// Innovatsiya o'quv jarayonida(tezislar to'plami). -T. 2009